Shu tariqa, Präterit nemis tilida nafaqat temporal kategoriya, balki iterativ semantikaga ega fe'llar bilan qo'llanganda, narrativ diskursda segmentlangan o'tmish modelini shakllantiruvchi muhim aspektual vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Biskup P. On Imperfective Suffixes in Russian. Russian Linguistics, 2024.
(2). Duden. Die Grammatik. Mannheim, 2009.
(3). Engel U. Deutsche Grammatik. Neubearbeitung. München, Iudicium Verlag, 2009.
(4). Goethe J.W. Die Leiden des jungen Werthers. Leipzig, Verlag Philipp Reclam jun., 1976.
(5). Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik. Leipzig, 1986.
(6). Jászay L. On the Problem of Iterative Action of the Russian Verb. Slověne, 2022.
(7). Kafka F. Die Verwandlung. Leipzig, Kurt Wolff Verlag, 1915.
(8). Mann T. Buddenbrooks. Berlin und Weimar: Aufbau-Verlag, 1975.
(9). Remarque E.M. Zeit zu leben und Zeit zu sterben. Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1954.
(10). Wągiel M. Iterative. Semelfactive = Collective. Singulative? Parallels in Slavic. Languages, 2025.

Sultonova Dildora Halim qizi (O'zbekiston jahon tillari universiteti, mustaqil tadqiqotchi;
E-mail: dildora750@gmail.com)

STILISTIK VOSITALARNING TURLARI VA ULARNING TARJIMA MODIFIKATSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy matnlarning estetik va ekspressiv mazmunini ta'minlovchi stilistik vositalar, ularning tasnifi hamda tarjima jarayonidagi modifikatsiyasi (o'zgarishi) masalalari tadqiq etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – muallif uslubini saqlab qolgan holda, lisoniy vositalarni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda yuzaga keladigan transformatsiyalarni tahlil qilishdan iborat. Maqolada tarjima jarayonida stilistik bo'yoqning kuchayishi, pasayishi yoki muqobil variantlar bilan almashinishi sabablari hamda milliy koloritga ega bo'lgan tasviriy vositalarni tarjimada qayta yaratishning qiyinchiliklari va yechimlari haqida ma'lumot berilgan. Stilistik vositalarni shunchaki so'zma-so'z tarjima qilish matnning badiiy qiymatini tushiradi. Shu sababli tarjimon matnning kontekstual ma'nosidan kelib chiqib, funksional-stilistik modifikatsiyalarni qo'llashi zarurligi ushbu maqolada ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *stilistik vosita, tarjima modifikatsiyasi, metafora, transformatsiya, badiiy matn, ekvivalentlik, lingvistik tahlil.*

ВИДЫ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ И ИХ ПЕРЕВОДЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ

Аннотация. *В данной работе исследуются виды стилистических средств и их модификации в процессе перевода. Основное внимание уделяется анализу трансформаций, происходящих при передаче экспрессивности оригинала на язык перевода. Автор рассматривает лексико-семантические приемы (метафора, эпитет, сравнение) и определяет условия, при которых необходима модификация стилистических единиц для сохранения адекватности перевода.*

Ключевые слова: *стилистические средства, переводческая модификация, метафора, трансформация, художественный текст.*

TYPES OF STYLISTIC MEANS AND THEIR TRANSLATION TRANSFORMATION

Annotation. *This article explores stylistic devices that ensure the aesthetic and expressive content of literary texts, their classification, and the issues surrounding their translational modification. The primary objective of the study is to analyze the transformations that occur when rendering linguistic devices from one language to another while preserving the author's unique style. The paper examines the reasons behind the intensification, weakening, or replacement of stylistic coloring during the translation process, as well as the challenges and solutions in recreating figurative means embedded with national color. It is argued that a literal translation of stylistic devices diminishes the artistic value of the text. Consequently, the article demonstrates the necessity for translators to apply functional-stylistic modifications based on the contextual meaning of the original work.*

Keywords: *stylistic devices, translational modification, metaphor, transformation, literary text, equivalence, functional-stylistic analysis.*

Kirish. Stilistik vositalarning paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlarining ildizi Qadimgi Yunoniston va Rimga borib taqaladi. O'sha davrda stilistika mustaqil fan hisoblanmagan, u notiqlik san'ati, ya'ni Ritorika tarkibida bo'lgan. Dastlab, Aristotel, Sitseron, Kvintilian kabi olimlar birinchi bo'lib nutqni bezash usullarini, ya'ni trop va figuralarni tizimlashtirganlar. Bundan asosiy maqsad, kitobxonga ta'sir o'tkazish va uni ishontirish hisoblangan. Metafora, epitet va ritorik so'roqlar aynan notiqlik san'ati sababli shakllangan. Keyinchalik, o'rta asrlarda stilistik vositalar diniy matnlarni sharhlash va saroy adabiyotida keng

foydalanilgan. Sharqda u "ilmi badi" nomi bilan rivojlangan hamda Mahmud Koshg'ariy va Alisher Navoiy uni yuksak cho'qqiga olib chiqqan. Yevropada esa, stilistik vositalar milliy tillarning shakllanishi bilan badiiy uslubning asosi sifatida qarala boshlangan. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, stilistika ritorikadan ajralib chiqib, tilshunoslikning mustaqil tarmog'iga aylangan. Sharl Balli esa shu zamonaviy lingvistik stilistikaning otasi hisoblanadi. U stilistikani tilning hissiy-ekspressiv imkoniyatlarini o'rganuvchi fan deya ta'riflagan. Bugungi kunga kelib, stilistik vositalar nafaqat badiiy adabiyotda, balki OAV, siyosiy nutq va media olamida ham yangicha ko'rinishlarda rivojlanmoqda. Bular, kognitiv stilistika (stilistik vositalar inson tafakkurining qanday ishlashini ko'rsatuvchi vosita sifatida o'rganadi) va pragmastilistika (vositalarning o'quvchi psixologiyasiga ta'sirini tahlil qiladi)dir. Shuni ayta olamizki, stilistik vositalar, ritiorkadan (ishontirish san'ati) boshlanib, estetika (go'zallik) orqali o'tib, bugun kognitiv tilshunoslikning (fikrlash vositasi) muhim qismiga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Stilistik vositalar tasviriy ifoda vositalari deb ham yuritilib, u tilning ta'sirchanligini, jozibasini, rang-barangligini hamda mantiqiy quvvatini oshirish uchun ishlatiladigan maxsus til birliklaridir. Ular yordamida muallif o'z qarashini, his-tuyg'ularini va g'oyalarini o'quvchiga yanada yorqinroq yetkazadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agar tilni biror taomga o'xshatsak, stilistik vositalar o'sha taomga o'zgacha ta'm va mazza beruvchi ziravorlarga qiyosdir.

Bir qancha olimlar stilistik vositalarga turlicha ta'riflar berganlar. Jumladan, sharq adabiyotshunosligida stilistik vositalar "Ilmi bayon" va "Ilmi bade" nomi bilan deb atalgan. Alisher Navoiy ularni shunchaki bezak emas, balki ma'no va ruhning ko'zgusi deb bilgan. Uning yozishicha, "so'z san'atlari (tashbih, istiora) ma'no kelinchagiga kiyitilgan go'zal libos kabidir".[1] Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida inson qalbiga so'zning badiiy qudrati orqali yo'l topish mumkinligini ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar. Leksik stilistik vositalar – troplar ham deb yuritiladi. Bunda so'zlar o'zining to'g'ri ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Bular: metafora (Ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan ko'chish), epitet (narsaning belgisini badiiy bo'yoq bilan tasvirlash), mubolag'a (hodisani o'ta bo'rttirib ko'rsatish), jonlantirish (Jonsiz narsalarga insoniy xususiyat berish), istiora (yashirin o'xshatish asosida ma'no ko'chishi).

G'azal tahlilidan namunalarni ko'rib chiqsak: *"Ul pari paykar ki, ko'nglumdin qaroru sabr olur... "*

Bu Alisher Navoiy g'azali bo'lib, unda metafora san'ati qo'llanilgan. Bu misrada "Pari" metaforasi ishlatilganki, u g'ayritabiiy go'zalikka ega bo'lgan afsonaviy mavjudotga qiyoslanmoqda. Agar shoir ma'shuqani to'g'ridan to'g'ri "go'zal ayol" deb ta'riflasa, g'azalning ma'noviy kuchi kamaygandek bo'lishi mumkin. Ingliz tiliga D.J.Matthews quyidagicha tarjima qilgan: *"That fairy-faced one who robs my heart of peace and patience..."*.

"Pari" so'zining ingliz tilida aniq ekvivalenti yo'q, chunki "fairy" G'arb mifologiyasida biroz boshqacha ma'noda keladi. Shu sababli tarjimon uni "fairy-faced" birikmasi orqali ifodalab, sharqona metaforani saqlab qolishga harakat qilgan. Agar u shunchaki "That beautiful woman" deb tarjima qilganida, leksik stilistik vosita yo'qolgan bo'lar edi. *"Firoqingdin chekarman shundayin ohki, falak yondur..."*[2]

G'azallarda ko'z yoshlari daryo bo'lishi yoki ohi olamni kuydirishi kabi holatlar xosdir. Bu mubolag'a san'atidir. Bu g'azal misrasi ham shu san'atning namunasidir. Agar "falak yondur" jumlasi "sky burns" deb tarjima qilinsa, ko'rsatib berilmoqchi bo'lgan ma'no ifodalana olmaydi. Stilistik vositani saqlash uchun esa *"My sighs set the heavens ablaze"* singari kuchli ifoda qo'llanishi lozim.

"Kaj boqib, qonim tugar har dam ul nargisi mast..."[3]

Bu misrada istiora san'ati qo'llanilgan bo'lib, "nargisi mast" (mast nargis) – ma'shuqaning ko'zlari nargis guliga o'xshatilyapti. "Mast" tushunchasi bu misrada suzuk boqishni ifodalaydi. Tarjimada kelib chiqadigan muammo shuki, agar tarjimon bu misrani "*Her eyes are like flowers*" (Uning ko'zlari gullarga o'xshaydi) deb talqin qilsa, tasvirning kuchi yo'qoladi. Shu sababli, leksik qatlamni saqlash uchun tarjimon Izzatulla Ahmedov *"drunken narcissus eyes"* (mast nargis ko'zlar) birikmasidan foydalangan va kitobxonni sharqona go'zallik etalonini his qilishga imkon bergan.

Sintaktik stilistik vositalar – figuralar ham deb yuritiladi. Bunda so'zning ma'nosi emas, balki gapning qurilishi o'zgaradi. Bular: inversiya (Gapdagi odatdagi so'z tartibining buzilishi), ritorik so'roq (Javob talab qilinmaydigan, faqat fikrni ta'kidlash uchun beriladigan savol), Antiteza (Zidlash), ya'ni, qarama-qarshi tushunchalarni yonma-yon qo'llash san'atidir.

---

[1] A.Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
[2] Lutfiy. Sensiz sog'inganda... yoki Lutfiy devoni. G'afur G'ulom, 2018, 45-bet.
[3] A.Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. G'afur G'ulom" 2011, 150-bet.

Sintaktik stilistik vositalarga g'azallardan namunalar ko'rib chiqamiz.

*"**O'ldi** ko'nglum, ey rafiqon, chorasiz dardi bila.."*

Alisher Navoiyning bu g'azali sintaktik stilistik vositalarning inversiya turiga mos bo'lib, bunda, ko'pincha, fe'l, ya'ni kesim misra boshiga chiqariladi. O'zbek tilida kesim gapning oxirida kelishi lozim, ammo shoir "O'ldi" so'zini misra boshiga chiqarib, o'lim va fojianing darajasini dastlabki o'ringa qo'ymoqda. Ingliz tiliga tarjimon Izzatulla Ahmedov "Dead is my heart, O friends, with a cureless pain..." kabi tarjima qilgan. Tarjimon Navoiy yaratgan sintaktik urg'uni saqlab qolib, "Dead is..." shaklida inversiyani qo'llagan hamda o'quvchi e'tiborini darhol "o'lim" holatiga qarata olgan.

Keyingi tahlil ritorik so'roq san'atiga tegishli bo'lib, Lutfiy g'azalidir.

"Seningdek dahr aro zebo qachon bo'lur?
Va yo gulshanda sen kibi rano qachon bo'lur?"

Shoir bu yerda "Hech qachon bo'lmaydi" demoqchi, ammo so'roq shaklini qo'llab, go'zallikning mislsizligini ta'kidlamoqchi. Ingliz tiliga tarjimon Izzatulla Ahmedov quyidagicha tarjima qilgan:

"When could there be a beauty like you in this world?
Or a rose as graceful as you in the garden?"[1]

Tarjimada "When could there be...?" strukturasi orqali ritorik so'roqning barcha emotsional holati ko'rsatib berilgan. Bu yerda sintaktik parallelizm (ikki misraning bir xil so'roq bilan tugashi) she'rning ritmini saqlaydi.

"Tole' yo'qi joni mayaxzunimga balodur,
Har necha ki qilsam, g'ami olam menga davodur"

Bu g'azal misralarida antiteza – tazod san'ati qo'llanilgan bo'lib, "Balo" (musibat) va "Davo"(shifo) so'zlari o'rtasida qarama-qarshilik mavjud. Inglizcha tarjimasi:

*"Lack of fortune is a **calamity** for my grieved soul,*
*Whatever I do, the world's sorrow is a **remedy** for me."*[2]

Bobur qalamiga mansub bu g'azalda tarjimon "Calamity" (balo) hamda "Remedy" (davo) so'zlaridan foydalanib, antitezaning kontrastini yanada yaqqolroq ko'rsata olgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, stilistik vositalarning tarjimadagi modifikatsiyasi – bu asarni "o'ldirish" emas, balki uni boshqa tillar muhitida "qayta jonlantirishdir" san'atidir. Tarjimon nafaqat tilshunos, balki madaniyatshunos kabi yo'l tutsagina, g'azalning o'lmas ruhi o'zga tillardagi kitobxon qalbiga kira oladi.

Shu nuqtayi nazardan, stilistik modifikatsiya asliyatning badiiy qiymatini boshqa til vositalari yordamida qayta tiklashning yagona va samarali usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). A.Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
(2). A.Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. G'afur G'ulom, 2011, 150-bet.
(3). Lutfiy. Sensiz sog'inganda... yoki Lutfiy devoni. G'afur G'ulom, 201, 45-bet.
(4). Izzatulla Ahmedov. Selected Lyrics of Lutfi. "Fan", 2013, 16-bet.
(5). Izzatulla Ahmedov. Selected Lyrics of Babur (Boburdan tanlangan lirika) yoki "Babur: Gazels" antologiyasi. "Fan", 2013, 20-bet.

Yakubov Sherzod Kamildjanovich (RANCH Texnologiya universiteti o'qituvchisi, Xorazm viloyati, Urganch shahri, O'zbekiston: ORCID:0009-0007-3725-912X; e-mail:sherzodyakubov554@gmail.com)

AMIR TEMUR SHAXSIGA BAG'ISHLANGAN ASARLARNING YUZAGA KELISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarixiy manbalarga tayanib, Amir Temurga bag'ishlangan ilk asarlarning paydo bo'lishi o'rganiladi. Tadqiqotda Sohibqiron Amir Temurga oid Sharq va G'arb manbalarini tahlil qilish uchun tarixiy-tavsiflash usuli, manbalarni tahlil qilish va kontekstual yondashuv qo'llaniladi. Xususan, unda Ibn Xaldun, Nizomiddin Shomi,va Ruy Gonsales de Klavixo kabi mualliflarining asarlari o'rganiladi. Tadqiqotda ushbu asarlarning yaratilish sharoitlari, mualliflarning tarixiy voqealarga munosabati va Temur shaxsiyatini tasvirlashga yondashuvlari tasvirlangan. Ushbu manbalar nafaqat Amir Temur faoliyatiga oydinlik kiritadigan, balki o'sha davrning siyosiy, diniy va madaniy holatini ham aks ettiruvchi muhim tarixiy material hisoblanadi.*

[1] Izzatulla Ahmedov. Selected Lyrics of Lutfi. "Fan", 2013, 16-bet.
[2] Izzatulla Ahmedov. Selected Lyrics of Babur (Boburdan tanlangan lirika) yoki "Babur: Gazels" antologiyasi. "Fan", 2013, 20-bet.